Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1- yanvar holatiga **3334,5** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **54,1** ming kishiga yoki **1,6** % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni **1432,9** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **43,0** %), qishloq aholisi soni **1901,6** ming kishini (**57,0** %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**
**2020- yil yanvar-dekabr**

- Aholi soni **54,1 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **90,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- **13,9 ming ta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **30,8 ming ta nikoh** va **2,0 ming ta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

**Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi**
(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)



**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi** (1-yanvar holatiga, ming kishi)

| | 2020- yil | 2021- yil | O‘tgan yilga nisbatan o‘sish yoki kamayish sur`ati, % da |
|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **3280,4** | **3334,5** | **101,6** |
| Qarshi sh. | **274,9** | **278,8** | **101,4** |
| Shahrisabz sh. | **139,1** | **140,7** | **101,2** |
| *tumanlar:* | | | |
| G‘uzor | **203,4** | **207,6** | **102,1** |
| Dehqonobod | **146,9** | **149,8** | **102,0** |
| Qamashi | **270,8** | **274,5** | **101,4** |
| Qarshi | **247,4** | **252,4** | **102,0** |
| Koson | **284,5** | **290,5** | **102,1** |
| Kitob | **263,8** | **266,2** | **100,9** |
| Mirishkor | **119,2** | **121,5** | **101,9** |
| Muborak | **86,6** | **88,2** | **101,8** |
| Nishon | **152,3** | **155,5** | **102,1** |
| Kasbi | **195,9** | **199,8** | **102,0** |
| Chiroqchi | **410,4** | **419,6** | **102,2** |
| Shahrisabz | **222,0** | **223,5** | **100,7** |
| Yakkabog‘ | **263,2** | **265,9** | **101,0** |

Hududlar kesimida tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021- yil 1-yanvar holatiga eng ko‘p aholi soni Chiroqchi tumanida **419,6** ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi **12,6** %) va Koson tumanida **290,5** ming kishini (**8,7** %), Qarshi shahrida **278,8** ming kishini (**8,4** %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida **88,2** ming kishini (**2,6** %) va Mirishkor tumanida **121,5** ming kishini (**3,6** %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o‘sish sur’ati 2020- yilning mos davriga nisbatan Chiroqchi tumanida **2,2** % ni, G‘uzor, Koson, Nishon tumanlarida **2,1** % ni, Dehqonobod, Qarshi va Kasbi tumanlarida **2,0** % ni, va aksincha eng kam o‘sish sur’ati Shahrisabz tumanida **0,7** % ni, Kitob tumanida **0,9** % ni, Yakkabog‘ tumanida **1,0** % ni va Shahrisabz shahrida **1,2** % ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida doimiy aholi soning taqsimlanishi**
(2021- yil 1-yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)




**Hududlar kesimida doimiy aholi soning shahar va qishloqlarga bo'linishi**



## Doimiy aholi sonining hududlar kesimida jinslar bo'yicha taqsimlanishi

| | Jami | Erkaklar | Ayollar |
|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **3334,5** | **1687,2** | **1647,3** |
| Qarshi sh. | **278,8** | **139,4** | **139,4** |
| Shahrisabz sh. | **140,7** | **71,5** | **69,2** |
| tumanlar: | | | |
| G'uzor | **207,6** | **105,3** | **102,3** |
| Dehqonobod | **149,8** | **75,7** | **74,1** |
| Qamashi | **274,5** | **139,2** | **135,3** |
| Qarshi | **252,4** | **125,4** | **127,0** |
| Koson | **290,5** | **147,3** | **143,2** |
| Kitob | **266,2** | **135,4** | **130,8** |
| Mirishkor | **121,5** | **62,0** | **59,5** |
| Muborak | **88,2** | **44,6** | **43,6** |
| Nishon | **155,5** | **77,8** | **77,7** |
| Kasbi | **199,8** | **101,9** | **97,9** |
| Chiroqchi | **419,6** | **213,4** | **206,2** |
| Shahrisabz | **223,5** | **113,6** | **109,9** |
| Yakkabog' | **265,9** | **134,7** | **131,2** |



**Tug'ilish.** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **90,2** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **27,3** promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan **0,6** promillega (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **26,7** promille) ko'paygan.

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan Qarshi shahrida (**20,5** promilledan **24,2** promillega), G'uzor (**26,6** promilledan **28,7** promillega) va Nishon tumanlarida (**27,7** promilledan **28,4** promillega **28,5** promillega), Dehqonobod tumanida (**29,1** promilledan **28,5** promillega), Koson tumanlarida (**27,5** promilledan **27,1** promillega) kamayish kuzatildi.



O'g'il bolalar: **47,1** ming nafar

Qiz bolalar: **43,1** ming nafar

**Ma'lumot uchun**

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, кindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti** (2020- yil yanvar-dekabr)



UZSTAT
QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni birlik,
o'sish yoki kamayish sur`ati % da** (yanvar-dekabr)

| | 2019- yil | 2020- yil | O'sish yoki kamayish sur`ati % da |
|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **86728** | **90211** | **104,0** |
| Qarshi sh. | **5606** | **6689** | **119,3** |
| Shahrisabz sh. | **3044** | **3163** | **103,9** |
| tumanlar: | | | |
| G'uzor | **5359** | **5892** | **109,9** |
| Dehqonobod | **4225** | **4225** | **100,0** |
| Qamashi | **7899** | **7760** | **98,2** |
| Qarshi | **5954** | **6145** | **103,2** |
| Koson | **7748** | **7778** | **100,4** |
| Kitob | **6608** | **6904** | **104,5** |
| Mirishkor | **2944** | **3139** | **106,6** |
| Muborak | **2253** | **2283** | **101,3** |
| Nishon | **4170** | **4373** | **104,9** |
| Kasbi | **5060** | **5210** | **103,0** |
| Chiroqchi | **13155** | **13736** | **104,4** |
| Shahrisabz | **5389** | **5473** | **101,6** |
| Yakkabog' | **7314** | **7441** | **101,7** |





**Vafot etganlar.** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida **13,9** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etdi (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **3,9** promille ).

O‘lim koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan Nishon, Dehqonobod tumanlarida (**3,6** promilledan **4,1** promillega), Qamashi tumanida (**3,7** promilledan **4,1** promillega), Kasbi, Muborak tumanlarida (**3,9** promilledan **4,3** promillega), Qarshi tumanida (**4,2** promilledan **5,1** promillega), Qarshi shahrida (**4,6** promilledan **5,0** promillega) o‘sish va aksincha Shahrisabz shahrida (**4,2** promilledan **3,9** promillega) va Shahrisabz tumanida (**4,0** promilledan **3,8** promillega) kamayish kuzatildi.

**Vafot etganlar**



Erkaklar: **7,9** ming kishi

Ayollar: **6,0** ming kishi

**Tumanlar kesimida o‘lganlar soni va koeffitsiyenti**
(2020- yil yanvar-dekabr)



**Hududlar kesimida o‘lganlar soni birlik, o‘sish yoki kamayish sur`ati % da**
(yanvar-dekabr)

| | 2019- yil | 2020- yil | O‘sish yoki kamayish sur`ati % da |
|---|---|---|---|
| **Qashqadaryo viloyati** | **12661** | **13914** | **109,9** |
| Qarshi sh. | 1263 | 1397 | 110,6 |
| Shahrisabz sh. | 581 | 546 | 94,0 |
| tumanlar: | | | |
| G‘uzor | 880 | 946 | 107,5 |
| Dehqonobod | 529 | 601 | 113,6 |
| Qamashi | 996 | 1106 | 111,0 |
| Qarshi | 1016 | 1280 | 126,0 |
| Koson | 1059 | 1097 | 103,6 |
| Kitob | 963 | 1064 | 110,5 |
| Mirishkor | 421 | 487 | 115,7 |
| Muborak | 335 | 374 | 111,6 |
| Nishon | 538 | 628 | 116,7 |
| Kasbi | 757 | 860 | 113,6 |
| Chiroqchi | 1345 | 1514 | 112,6 |
| Shahrisabz | 883 | 844 | 95,6 |
| Yakkabog‘ | 1095 | 1170 | 106,8 |

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning **59,0** % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,4** % i o‘simtalardan, **5,2** % i ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **6,3** % i nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **4,5** % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **2,8** % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda **14,8** % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro‘yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni **694** nafarni tashkil etib, ularning **55,0** % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, **21,1** % i nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **6,9** % i tug‘ma anomaliyalardan, **4,1** % i yuqumli va parazitar kasalliklardan, **1,4** % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **1,1** % i ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan va **10,4** % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**
(jami vafot etganlarga nisbatan % da)




### 2020- yil yanvar-dekabr

**Tabiiy o‘sish.** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o‘sishi **76,3** ming kishini tashkil etib, 2019- yil mos davriga nisbatan **2,2** ming kishiga (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida **74,1** ming kishi) o‘sgan.



Tabiiy o‘sish: **76,3** ming kishi

**Nikoh.** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan **30,8** ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti **9,3** promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sish Shahrisabz shahrida (**108,2** %), Qarshi tumanida (**107,3** %) va eng yuqori kamayish Yakkabog‘ (**86,6** %), Shahrisabz (**90,1** %) tumanlari va Qarshi shahri (**92,3** %) ga to‘g‘ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan **2,0** mingta, nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti **0,6** promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sish Muborak (**180,0** %), Shahrisabz (**152,5** %), Koson (**147,4** %), Kitob (**141,7** %) va eng yuqori kamayish Mirishkor (**88,0** %), Yakkabog‘ (**97,2** %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti**
(2020- yil yanvar-dekabr )



## Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti
(2020- yil yanvar-dekabr)






**Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni birlik, o'sish yoki kamayish sur`ati % da** (yanvar-dekabr)

| | Tuzilgan nikohlar | | | Nikohdan ajralishlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- yil | 2020- yil | O'sish yoki kamayish sur`ati % da | 2019- yil | 2020- yil | O'sish yoki kamayish sur`ati % da |
| **Qashqadaryo viloyati** | **31175** | **30858** | **99,0** | **1567** | **2010** | **128,3** |
| Qarshi sh. | **2466** | **2276** | **92,3** | **255** | **312** | **122,4** |
| Shahrisabz sh. | **1177** | **1274** | **108,2** | **114** | **160** | **140,4** |
| tumanlar*:* | | | | | | |
| G'uzor | **2013** | **2139** | **106,3** | **92** | **113** | **122,8** |
| Dehqonobod | **1342** | **1432** | **106,7** | **54** | **67** | **124,1** |
| Qamashi | **2656** | **2650** | **99,8** | **112** | **113** | **100,9** |
| Qarshi | **2335** | **2506** | **107,3** | **122** | **169** | **138,5** |
| Koson | **2906** | **2946** | **101,4** | **97** | **143** | **147,4** |
| Kitob | **2318** | **2467** | **106,4** | **156** | **221** | **141,7** |
| Mirishkor | **1213** | **1115** | **91,9** | **50** | **44** | **88,0** |
| Muborak | **845** | **864** | **102,2** | **35** | **63** | **180,0** |
| Nishon | **1549** | **1514** | **97,7** | **68** | **90** | **132,4** |
| Kasbi | **1939** | **1871** | **96,5** | **70** | **86** | **122,9** |
| Chiroqchi | **3966** | **3883** | **97,9** | **100** | **139** | **139,0** |
| Shahrisabz | **1961** | **1766** | **90,1** | **99** | **151** | **152,5** |
| Yakkabog' | **2489** | **2155** | **86,6** | **143** | **139** | **97,2** |




**Migratsiya.** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni **9,4** ming kishini, ko‘chib ketganlar soni esa **31,6** ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus **22,2** ming kishi bo’lib, 2019- yilning mos davrida minus **6,7** ming kishi bo’lgan.





Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yakkabog‘ tumanida (minus **3,6** ming kishi), Kitob tumanida (minus **3,5** ming kishi), Shahrisabz tumanida (minus **3,2** ming kishi), Chiroqchi tumanida (minus **3,0** ming kishi) qayd etildi.

**Aholi migratsiyasi** (ming kishi yanvar-dekabr)

| | **2019- yil** | **2020- yil** |
|---|---|---|
| **Ko‘chib kelganlar** | 10,7 | 9,4 |
| **Ko‘chib ketganlar** | 17,4 | 31,6 |
| **Migratsiya saldosi** | -6,7 | -22,2 |

## Hududlar kesimida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni va migratsiya saldosi, kishi (yanvar-dekabr)

| | Ko‘chib kelganlar | | Ko‘chib ketganlar | | Migratsiya saldosi | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2019- yil | 2020- yil |
| **Qashqadaryo viloyati:** | 10727 | 9425 | 17466 | 31660 | -6739 | -22235 |
| Qarshi sh. | 2409 | 1910 | 2597 | 3281 | -188 | -1371 |
| Shahrisabz sh. | 344 | 319 | 770 | 1384 | -426 | -1065 |
| tumanlar: | | | | | | |
| G‘uzor | 525 | 337 | 793 | 1099 | -268 | -762 |
| Dehqonobod | 333 | 219 | 877 | 996 | -544 | -777 |
| Qamashi | 433 | 346 | 1435 | 3286 | -1002 | -2940 |
| Qarshi | 1834 | 1764 | 1255 | 1635 | 579 | 129 |
| Koson | 476 | 476 | 983 | 1111 | -507 | -635 |
| Kitob | 512 | 522 | 1502 | 3986 | -990 | -3464 |
| Mirishkor | 301 | 294 | 475 | 564 | -174 | -270 |
| Muborak | 375 | 241 | 528 | 529 | -153 | -288 |
| Nishon | 1005 | 833 | 926 | 1400 | 79 | -567 |
| Kasbi | 545 | 360 | 749 | 818 | -204 | -458 |
| Chiroqchi | 238 | 265 | 1480 | 3256 | -1242 | -2991 |
| Shahrisabz | 684 | 843 | 1537 | 4017 | -853 | -3174 |
| Yakkabog‘ | 713 | 696 | 1559 | 4298 | -846 | -3602 |

## Aholi migratsiyasi koʻchib kelganlar va koʻchib ketganlar
(yanvar-dekabr)







**Viloyat statistika boshqarmasi Demografiya va mehnat statistikasi bo`limi**
*(75) 220-04-10  (75) 221-15-84*